

MAJBURIY FANLAR

ONA TILI

1. Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan?
 - A) *G'amdan o'rtingan tanbur ovozi uni allaqayoqlarga olib ketgandek bo'ldi.*
 - B) *Yuzi issiqdan qizarib ketgan ayollar daladan chiqay deyishmasdi.*
 - C) *Ma'yus majnuntollar ularni hamon kutishayotgan ekanmi?*
 - D) *Buloqning ko'zi qayta ochildi, obihayot jildirab-jildirab oqardi.*

2. Qaysi javobda o'rin bildiruvchi ravishlar qatori berilgan?
 - A) *ichkarida, tashqarida, shu payt*
 - B) *hamma yoqda, oldinda, kechasi*
 - C) *uzoqda, nari, shu kuni*
 - D) *shu yoqda, o'rtada, yuqoriga*

3. Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar qatorini belgilang.
 - A) *baland//parvoz, ko'z//oynak*
 - B) *mehnat//sevar, och//yashil*
 - C) *qo'sh//tabaqa, tomdan//tomga*
 - D) *o't//o'lan, kunma//kun*

4. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.
 - A) *horijiy, muvafaqiyat*
 - B) *xashamat, davat*
 - C) *isnot, extiyot*
 - D) *ogoh, saxovat*

5. Qaysi javobda so'z va ibora ma'nodoshligi berilgan?
 - A) *uxlab qolmoq – mizg'immoq*
 - B) *hafsalasi pir bo'lmoq – tarvuzi qo'llitig'idan tushmoq*
 - C) *to'satdan – tomdan tarasha tushganday*
 - D) *ko'zi ilinmoq – pinakka ketmoq*

6. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?
 - A) *Odamda tasavvur bor, shuning uchun nimaningdir yoki kimningdir suratini xayoliga keltira oladi.*
 - B) *Sanimiylik ham – xuddi husn va aql kabi ehson.*
 - C) *Ey farzand o'zingni mol jam qilishdan g'ofil tutma, ammo halollik bilan mol to'plashga harakat qil.*
 - D) *Dono bo'lmoq uchun bilimsizdan ham, o'rganmoq kerak.*

7. Qaysi gapda bosh harflar imlosiga amal qilingan?
 - A) *Erkin Vohidov Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan.*
 - B) *Erkin Vohidov "Ruhlar Isyonii" dostonining muallifidir.*
 - C) *O'zbekiston Xalq Shoiri Erkin Vohidov 1964-yil "Nido" dostonini yaratdi.*
 - D) *Erkin Vohidov Farg'ona Viloyatining Oltiariq tumanida tavallud topgan.*

8. Qaysi gapda kelishik qo'shimchasini qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud?
 - A) *Amir Temur xalqimizni ana shunday ardoqli, ulug' farzandidir.*
 - B) *O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil.*
 - C) *O'zining ovozi o'ziga uzoqdan eshitilganday bo'ldi.*
 - D) *Ikromjon xotinini biz bilan qoldirdi-da, o'zi idora tarafga ketdi.*

9. Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan birlik hol vazifasini bajargan?
 - A) *Qizning go'zal yuzi kulib turar edi.*
 - B) *Vatan uchun mardonavor kurashgan yigitlarimiz nomi qalbimizda abadiy yashaydi.*
 - C) *Xonobodliklar bu qutlug' bayramga katta to'yna bilan kelishdi.*
 - D) *Bunday xufiyona munosabatlardan natijasida shu gaplar tarqaldi.*

10. Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan?
 - A) *Vatan istiqboli, yurt farovonligi uchun jonini qurbon qilgan bobolarimiz ruhi hamisha shod bo'lsin.*
 - B) *Ularning istiqlol uchun kurash dasturida ham ona tilining mavqeyini saqlab qolish masalasi turgan.*
 - C) *Har bir inson qalbida ikki do'st: yaxshilik va yomonlik doimiy kurashadi.*
 - D) *Ba'zilar tananing og'irligiga bo'yning mutanosibligini sog'lomlik va go'zallik belgisi deb hisoblashadi.*